

## MEDIA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV USULLARNING AHAMIYATI

G‘ulomjonov Avliyoxon Ravshanbek o‘g‘li

**Annotatsiya:** Ushbu Maqolada media savodxonlikni rivojlantirish jarayonida interaktiv ta’lim usullarining o‘rni va samaradorligi tahlil qilingan. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, axborot bilan ongli ishslash va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda jamoaviy ishlanmalar, muhokamalar, kontent tahlili kabi metodlarning ijtimoiy va pedagogik ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** media savodxonlik, interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlash, axborot tahlili, ta’limda innovatsiya, kontent sharhi, axborot madaniyati, jamoaviy o‘rganish.

**Аннотация:** В этой статье анализируется роль и эффективность интерактивных образовательных методов в развитии медийной грамотности. Социальная и педагогическая значимость учащихся, таких как критическое мышление, информация, сознательная деятельность и формирование гражданских позиций, охватывается коллекциями, дискуссиями и анализом контента.

**Ключевые слова:** Медиа -грамотность, интерактивные методы, критическое мышление, анализ информации, инновации, обзор контента, информационная культура, сотрудничество

Bugungi raqamli asrda media axborot oqimi nihoyatda kengayib bormoqda. Televizion dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, internet nashrlari orqali odamlar turli axborotlarni har kuni minglab miqdorda qabul qilmoqda. Bu jarayonda axborot bilan ishslash, uni tanqidiy tahlil qilish, yolg‘on va manipulyativ ma’lumotlardan himoyalanish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lish har bir fuqaroning zaruriy ehtiyojiga aylanmoqda. Aynan shu sababli media savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Media savodxonlik – bu insonning axborot manbalarini tahlil qilish, baholash, ularni anglab yetish, axborotni maqsadli ravishda yaratish va tarqatish qobiliyati bo‘lib, yosh avlodga bu ko‘nikmalarni o‘rgatish jamiyatning madaniy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Ta’lim tizimida bu borada interaktiv yondashuvlar alohida ahamiyatga ega, chunki interaktiv metodlar orqali o‘quvchilar axborot bilan ishslashning amaliy mexanizmlarini o‘rganishadi, ijtimoiy jarayonlarga faol ishtirokchi sifatida yondashishni o‘zlashtiradilar.

Interaktiv ta’lim usullari – bu o‘quvchilarning faolligini ta’minlaydigan, ularni axborot muhitida faol ishtirok etishga undaydigan yondashuvlar bo‘lib, ular o‘zaro muloqot, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozara, rolga kirish, media kontentni tahlil qilish kabi faoliyatlar asosida tashkil etiladi. Bunday usullar orqali o‘quvchi media materiallarni chuqurroq anglaydi, ularning ijtimoiy, madaniy yoki siyosiy kontekstini

tushunishga harakat qiladi. Masalan, biror ijtimoiy tarmoqdagi postni tahlil qilish, uning ortidagi niyatni, ifodalangan g’oyalarni muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Media savodxonlikni rivojlantirishda babs va munozara mashg’ulotlari, jamoaviy loyiha ishlari, “fake news”ni aniqlash mashqlari, kontent tahlili, video sharhlar tuzish kabi faoliyatlar o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat hissini oshiradi. Shuningdek, o‘quvchilarga oddiy iste’molchi emas, balki kontent yaratuvchi sifatida yondashish imkonini beruvchi topshiriqlar orqali ular media maydonidagi rollarini anglab yetishadi.

Interaktiv usullar shuningdek, mediamuhitdagi ma’lumotlar oqimidan himoyalanish, ongli tanlov qilish, shaxsiy hayotga daxldorlik, axloqiy mezonlar va inson huquqlariga hurmat kabi qadriyatlarni ham singdirishda samarali bo‘ladi. Shunday metodlar orqali yoshlar orasida ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan tanqidiy yondashuv, axborotni baholashda dalillarga tayanish, fakt va fikrni ajrata olish, vizual va verbal kodlarni anglash qobiliyatları shakllanadi.

Shu jihatdan media savodxonlikni interaktiv usullar orqali o‘rgatish nafaqat bilim berishga, balki fuqarolik ongini, axborot madaniyatini, mustaqil fikrlash va shaxsiy pozitsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi faqat tayyor axborotni iste’mol qiluvchi emas, balki uni anglay oluvchi, baholay oluvchi va kerakli holatda mustaqil kontent yaratuvchi bo‘lishi uchun interaktiv metodlar eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, media savodxonlikni shakllantirishda interaktiv usullar yosh avlodni media maydonida faol va ongli ishtirokchiga aylantirishda beqiyos imkoniyatlarga ega. Bu nafaqat ta’limning zamonaviy talablariga javob beradi, balki demokratik, ochiq va mas’uliyatlari jamiyat qurishga ham xizmat qiladi.

## **ADABIYOTLAR:**

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 12(3), 80–97.
2. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). *E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning*. John Wiley & Sons.
3. Karimov, I. A. (2006). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.